

NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASASIDA O'QISH UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

*Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent Tursunov F.G'.*

*Jabborova Roziya Juraxon qizi
University of science and technologies
1-kurs talabasi , guruh koordinatori.
jabborovaroziya7405@gmail.com*

Annotatsiya : maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomi, amalga oshirilayotgan islohotlar va ota-onalar hamda bugungi kun talabalarini qiziqtirayotgan masalalarning yechimlariga bag'ishlangan bo'lib, nodavlat oliy ta'lim muassasasida o'qish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar : nodavlat oliy ta'lim muassasalari, diplom, davlat , litsenziya , qonun , qaror, talaba, munosabat, fikr, ta'lim, ta'lim sifati, huquq.

Аннотация. Статья посвящена правовому статусу негосударственных высших учебных заведений, проводимым реформам и решению вопросов, интересующих сегодня родителей и студентов, анализируются возможности, созданные для обучения в негосударственном высшем учебном заведении.

Ключевые слова: негосударственные вузы, диплом, государство, лицензия, закон, решение, студент, отношение, мнение, образование, качество образования, закон.

Abstract: The article is devoted to the legal status of non-state higher educational institutions, ongoing reforms and solutions to issues of interest to parents and students today, and analyzes the opportunities created for studying at a non-state higher educational institution.

Key words: non-state universities, diploma, state, license, law, decision, student, attitude, opinion, education, quality of education, law.

Kirish: Maqolada bugungi kunda nodavlat oliy ta'lim muassasalariga bo'layotgan turli savollar, ota onalarda yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklar hamda davlat oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda bir xil o'ringa, shart-sharoitlarga ega bo'lgan nodavlat oliy ta'lim muassasalari haqida fikr yuritishni lozim deb topdik.

Litseziyaga ega nodavlat oliy ta'lim muassasalarining diplomlari davlat oliy ta'lim muassasalari bilan bir xil daraja va imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda ba'zi bir tushunmovchiliklarning kelib chiqish sababi ham ayrim litsenziyaga ega bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim muassasalari tufayli yuzaga kelmoqda. Albatta muammo faqatgina ota-onalarning noto'g'ri tushunchaga ega ekanligida emas, balki talabaning maktabni bitirganidan so'ng o'qish uchun tanlayotgan oliy ta'lim muassasasini to'g'rilgi hamda haqiqatdan o'qitishga ruxsati borligini tekshirish ya'ni ruxsatnoma-litsenziyaga egaligini bilish muhim o'rin tutadi, shundagina ishonch bilan harakat qilinadi va birinchi qadamlar to'g'rilik bilan qo'yiladi.

Hozirgi kunda o'qishni davlat oliy ta'lim muassasalarga ko'chirishni reja qilayotgan talabalar nodavlat ta'lim muassasalarini shunchaki bir yil orqada qolib ketmaslik uchun bir imkoniyat sifatida ko'rishadi, qolaversa davlat o'quv yurtlariga hujjat topshirayotganda 5 ta tanlash huquqiga ega bo'lishsa ham yildan yilga qolib ketish holatlari hali ham mavjud, shunday o'rinda nodavlat oliy ta'lim muassasalari shunchaki tanlov sifatida o'rin tutishi biz uchun tabiiy holat bo'lib qolmoqda. Buning qanchalik to'g'ri qarorligini hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalarining jamiyatimizda hattoki davlatimiz qonunlari oldida qanday o'rin tutishini ko'rib chiqishimiz lozim.

“2023-yil 9-avgust holatiga ko'ra, Respublikada **80 dan ziyod** nodavlat oliygohlar *litsenziya* asosida faoliyat olib bormoqda¹.

Fikrimizcha, nodavlat oliygohlarning quyidagi farqli jihatlari mavjud:

– Xususiy oliygohlarda berilayotgan erkinlik tufayli ta'lim sifatini 2 barobar yuqoriga ko'tarish mumkin;

– Xorijlik o'qituvchilar, yuqori malakaga ega noyob pedagoglar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar;

– Darslarning asosan chet tilida olib borilishi uchun yaratilgan imkoniyatlar;

– Bakalavr darajasini olish bilan birgalikda chet tillarini o'rganish imkoniyati;

– Ayrim oliygohlar ta'lim davrida IELTS darajasini ham kafolatlaydi;

– Zamonaviy o'quv auditoriyalari va zamonaviy sharoit va ijobiy muhit;

– Zamonaviy o'quv tizimi;

– O'qishga kirishning nisbatan osonligi;

– Deyarli ta'lim davrida ish topish, ayniqsa xorijiy davlat yoki xorijiy kompaniyalardan ish topishning qulayligi.

O'z vaqtida sharoiti tufayli o'qishga topshira olmagan insonlar uchun yaxshi imkoniyat . U yerdagi ta'lim tizimi sizni o'sishingizga imkoniyat yaratadi . Xorijiy va mahalliy yirik kompaniyalarga ishga kirishga oliygohlarning o'zi sizga ko'maklashadi. Xullas nodavlat OTMLlarda o'zaro raqobat borligi sababli ham ular talab va majburiyatlarni yuqori qilishga harakat qiladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi².

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatadi.

Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq

¹ Nodavlat oliy ta'lim muassasalari rasmiy kanalidan <https://t.me/nodavlattalim>

<https://lex.uz/docs/5013007> Ya'ni, tegishli litsenziyaga ega nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan berilgan diplomlar davlat oliy ta'lim muassasalari diplomlari bilan teng darajada qabul qilinadi. 31-modda. Nodavlat ta'lim tashkilotlari

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi, ya'ni:

Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ta'lim oluvchi yoxud uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra "Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini qonun orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi. Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli. Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega".³

Nodavlat oliygoh talabasi ham o'qib, ham ishlashi mumkin. Buning uchun qonunlarda cheklov yo'q.

Oliy ta'lim to'g'risida Nizomning 50-bandiga⁴ ko'ra kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talaba darsdan bo'sh vaqtlarida (kunning ikkinchi yarmida) ham oliy ta'lim muassasasida, ham boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlashga ruxsat etiladi. Amaldagi Mehnat kodeksining 248-moddasiga ko'ra ta'lim muassasalarida o'qiyotgan xodimlarga ishni ta'lim bilan birga qo'shib olib borishlari uchun ish beruvchi zarur sharoitlar yaratib berishi shart.

Talabalar qaysi kursdan boshlab maktabda dars berishga haqli va necha soatgacha? Hukumatning "Ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarga malakali o'qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (15.10.2021) 646-son⁵ qaroriga binoan, pedagogika yo'nalishlarida kunduzgi kechki, sirtqi bo'limlarining 3-kursida tahsil olayotgan talabalarga maktablarda dars berish huquqi berildi.

Xususiy OTMning sirtqi ta'lim shakli talabalari uchun berilgan diplomi tan olinmaydi(mi)?

Ijtimoiy tarmoqlarda "xususiy OTMning sirtqi ta'lim shakli talabalari uchun berilgan diplomi tan olinmaydi" mazmunidagi xabarlar tarqaldi. Aslida masala noto'g'ri talqin qilingan bo'lib, mavzu yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-modda // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

⁴ 1222-сон 22.02.2003. Об утверждении положения о высшем образовании (lex.uz)

⁵ 646 16.10.2021 Таълим даражаси юқори бўлмаган мактабларга малакали ўқитувчи-педагогларни жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz)

Ma'lumki, 2022-yil 22-iyundagi PQ-289-son qaroriga muvofiq ⁶, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab pedagogika sohasidagi ta'lim yo'nalishlariga sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qishga ta'lim tizimida pedagogik faoliyatga oid kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi, jumladan;

- boshlang'ich ta'lim;
- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi;
- musiqa ta'limi;
- jismoniy madaniyat;
- texnologik ta'lim yo'nalishlarga 5 yillik ped stajsiz o'qishga qabul qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23 sentyabr kuni "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni imzolandi, deya xabar qildi Adliya vazirligi matbuot xizmati. Mazkur hujjat 19 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ikkinchi o'qishda [qabul qilinib](#), 7 avgustda Senat tomonidan [ma'qullangan edi](#).

Hamda huddi shu qonunda nodavlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga ham alohida nutq tadbiiq qilingan:

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish **ularning ta'sisчилari tomonidan** amalga oshiriladi.

Ya'ni shu bilan birga nodavlat oliy ta'lim muassasalari shunchaki o'z o'zidan barpo qilingan tashkilot ham yoki bir biznes faoliyat ham emas balki haqiqatdan ham yoshlarning o'qishi ularning bilimini oshirish uchun rejalashtirilgan bir loyihadir .

Nodavlat oliy ta'lim muassasalariga kirish oson o'qish esa qiyin degan firka to'xtaladigan bo'lsak albatta ushbu nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimiga katta ahamiyat berilgani sabab hamda darslar vazifalar har qanday talabga javob bera oladigan bo'lishini inobatga olgan holda biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin .

Aslida tushunib yetishimiz kerakki har qanday yangilik juda ham ta'sirchan bo'lib, yoshi ulug'larimiz bu bilan hatto kelishishni xohlashmaydi ammo maqsad shundaki biz yangi O'zbekistonni boshqatdan yangilayotgan holda har qanday keskin o'zgarish va rivojlanishlarga tayyor turishimiz lozim. Men uchun har biringizning Oliy ta'lim muassasasiga bo'lgan munosabatingiz muhimdir . Shuning uchun har qanday masalada bo'lmasin o'zingiz xohlagandek yo'l tuting bu sizning tanlov yoki qaroringiz .

Ta'lim - ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdagi ikki yoqlama (ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati) jarayon bo'lib, u kishini shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Shunday bo'lsa ham bu shunchaki bir hayotiy misol edi holos aslida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ta'lim tizimi yoshlarni ishonchli bilimlar va kerakli qobiliyatlarni ta'minlab berish uchun tashkil etilgan bo'lib, yoshlar taqdiriga

⁶ (<https://t.me/nodavlatlim/473>)

befarq bo'lmagan insonlar tomonidan tashkil qilingan. Ularning litsenziyasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan holda doimo nazoratda bo'ladi va nodavlat oliy ta'limidan olingan diplomlar hech shak shubhasiz davlat diplomlari bilan bir xil darajada qabul qilinadi, shuning uchun shubhasiz o'z yonalishingizni tanlab o'qishingizni bemalol xohlagan universitetingizda boshlashingiz yoki davom ettirishingiz mumkin. Ushbu maqola nafaqat yoshlarimiz taqdiri haqida qayg'urayotgan ota-onalarimiz uchun balki nodavlat ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar uchun ham haqiqatdir. Kelajagagingiz o'z qo'lingizda universitet siz bilim olishingiz uchun tashkil qilingan bir imkoniyatdir!

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ham hozirgi kunda juda ham begona bo'lgan bir yangiliklaridan biri emas, vaholanki ko'plab yoshlar katta imkoniyatlardan foydalangan holda o'z faoliyatlarini bemalol olib borishmoqda.

Shaxsan har qanday savolga javob bo'la oladigan ushbu nizom va qarorlar ba'zan bizning ongimiz anglab yetishi uchun yetmayotganligi sabab shaxsan o'zim o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasi haqida ham malumot berib o'tib ketmoqchiman.

Men Jabborova Roziya University of science and technologies universitetida 1-kurs talabasi bo'lib o'z faoliyatlarimni yuritmoqdaman hamda ushbu oliy ta'lim muassasining litsenziyasini shaxsan aniqlab ko'rgan talaba sifatida shuni ta'kidlamoqchimanki, men ushbu universitetni tanlaganimning asosiy sabablaridan biri undagi har bir talabaga bo'lgan e'tibor, imkoniyatlar va meni lol qoldirganida. 2023-yil men 11-sinf 329-maktabni bitirdim hamda O'zbekiston davlat universiteti xalqaro jurnalistika fakultetiga kontrakt asosida qabul qilindim lekin o'z iqtidorim va harakatim sababli hozir o'qiyotgan Fan va texnologiya universitetiga 100 foizlik grant asosida o'qishga qabul qilindim.

Bunday imkoniyatning yilning boshidan tashkil qilingani minglab talabalarni har kuni hayratda qoldirmoqda. Shaxsan mening qarorimni so'rashganida ushbu o'qishning afzalliklari mening qalbimdan joy olganligi hamda talabalarning o'z ustida ishlash uchun harakatlariga guvoh bo'lgan holatda o'qishimni shu yerda davom ettirishga qaror qildim. Mening tanlovim, "sen oqiyotgan o'qish diplomi keyinchalik o'z qadrini yo'qotadi davlatnikida o'qisang ish topishing ham oson bo'ladi" kabi tanqidiy fikrlarga uchradi, shunday bo'lishiga qaramay hali hamon men o'z faoliyatimni davom ettirmoqdaman buning asosiy sabablari esa quyidagilar:

- Ta'lim tizimining birinchi o'ringa qo'yilishi;
- O'qitish tizini talabaning salohiyatiga qarab faoliyatlariga moslashtirish imkoniyati;
- Har bir talabaning o'z darslaridan tashqari boshqa yo'nalishlarda yordam soray olishi;
- Kontraktlarning 4 qismga bo'lib to'lay olish imkoniyati;
- Hattoki stipendiyaga harakat qilish imkoniyatlari;
- Elektron kutubxonalarning eshiklari doim ochiqligi;
- Amaliyotlarning 1-kursdan boshlanishi;
- Iloji boricha fanlarning kamligi lekin eng keraklilari o'tilishlari bizning e'tiborimizni jalb qildi.



Universitetdagi qulaylik va imkoniyatlar:

- Qulay joylashuv: metroning “Olmazor” bekatidan uzoq emas;
- Shaharning istalgan nuqtasidan avtobusda yetib kelish imkoniyati;
- Keng, shinam va eng yangi texnika bilan jihozlangan o‘quv xonalari;
- 100 dan ortiq kompyuterga ega elektron kutubxona va “co-working” markazi;
- Butun universitet bo‘ylab bepul Wi-Fi ning mavjudligi;
- Kontraktli yil davomida bo‘lib to‘lash imkoniyati;
- Talabalarga birinchi kursdan amaliyot o‘tash imkoniyati beriladi;
- Universitet barcha talabalarni ish bilan ta‘minlashda amaliy yordam ko‘rsatadi. Shuningdek universitetda yuqori ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan professor o‘qituvchilarning faoliyat yuritishi bizni quvontiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.

3- Xasanboyev Pedagogika. 2017-138-B

4- Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 2017- B. 4.

5- (<https://lex.uz/docs/327039>)

6- (<https://t.me/nodavlattalim/473>)

7- (<https://lex.uz/pdfs/5679889>)

8- <https://usat.uz/>